



<https://doi.org/10.5281/zenodo.12546677>

Saida Komilova

FarDU talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mashhur yunon faylasufi Homerning "Iliada" dostonida keltirilgan do'stlik obrazi haqida fikr yuritilgan. Asarning "Patrokloma" qismida Axillesning Troyaga qarshi yurishlari aks ettirilgan. Asar kompozitsion sathida qahramonlar ichki dunyosini, ular orasidagi do'stlik tuyg'ularini yoritishdagi poetik funksiyalari misollar orqali asoslangan.

Kalit so'zlar

do'stlik, badiiy obraz, asar kompozitsiyasi, qahramon xarakteri, yunon mifologiyasi, "Iliada" dostoni, iztirob, insoniy tuyg'ular.

ОБРАЗ ДРУГА В ГРЕЧЕСКОЙ МИФОЛОГИИ

АННОТАЦИЯ

В этой статье рассматривается образ дружбы, представленный в эпосе "Илиада" известного греческого философа Гомера. В разделе "Патрокл" произведения изображены походы Ахилла на Троию. На композиционном уровне произведение опирается на примеры его поэтической функции в освещении внутреннего мира героев, чувства дружбы между ними.

Ключевые слова

дружба, художественный образ, композиция произведения, характер героя, греческая мифология, эпос «Илиада», страдания, человеческие чувства.

THE IMAGE OF A FRIEND IN GREEK MYTHOLOGY

ANNOTATION

This article reflects on the image of friendship presented in the epic "Iliad" by the famous Greek philosopher Homer. The "Patrocloma" section of the work features Achilles' campaigns against Troy. At the compositional level of the work, its poetic functions in illuminating the inner world of heroes, the feelings of friendship between them, are based through examples.

Key words



friendship, artistic image, work composition, hero's character, Greek mythology, "Iliad" epic, suffering, human feelings.

Adabiyot eng yaxshi insoniy tuyg'ularni tarannum etishi orqali ham ehtiromga loyiqdir. Yaxshi xulq-atvorlar adabiy asarlarda toblanib, undan o'quvchi qalbiga singadi. Ayniqsa sof insoniy do'stlik, do'stga sadoqat mavzulari g'oyat katta ijtimoiy ahamiyatga molikdirki, adabiyot bu jihatdan xalqlar, millatlar aro totuvlikning jarchisi sifatida insoniyatga beg'araz xizmat qilib kelmoqda.

Adabiyotning ta'sir doirasi to'g'ri tanlab olingan obrazlar orqali ortadi. Badiiy obraz borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlanib, hissiy idrok etish mumkin shaklda ifodalangan aksidir¹ Badiiy obraz tushuncha, tasavvur, faraz va tafakkur unsurlariga xos xususiyatlariga ega: ijodkor badiiy obraz vositasida fikrlaydi, borliqni oddiygina aks ettirmasdan, uni ijodiy qayta yaratadi.² Shunga ko'ra badiiy asarda turli xil obrazlar keltirilishi mumkin. Ulardan biri do'stlik obrazidir. Do'st-g'amingda g'amdosh, xastaligingda shifokoring, u o'lim xavfi chang solib turgan lahzada o'zini qurbon qilishga tayyor turuvchi kishing", - deb aytadi S.Orbeliani.

Har bir xalq asarlarida do'stlik obrazlari turlicha keltirilgan. Masalan, mashhur yunon afsonalari va miflaridan iborat bo'lgan Homerning "Iliada" dostonidagi o'n oltinchi qo'shiq "Patrokloma" deb nomlanadi va unda afsonaviy hamda yengilmas Axilles va uning qadrdon do'sti Patroklning o'rtasidagi dardli suhbat bayon etiladi. Troyani yengish hamda shu orqali do'sti Axillesni halokatdan qutqarib qolish uchun izn so'rayotgan Patrokl va do'stini ming qayg'u ila jangga jo'natayotgan Axillesning holatida do'stlarga xos cheksiz mehr yaqqol ko'rinib turadi:

"Zafar baxsh et unga, o, sohibkaram!

Jur'at ufur yuragiga, toki har mard yigitimizning

Bellashuvga qodirligin ko'rib qo'ysin Hektor janggohda,

Yo u hamon qudratidan mag'rurlanib quturmoqchimi?!

Mard Patrokl yong'inni va falokatni lashkar boshidan

Daf aylagach, uning jangdan do'stlari va silohlari-la

Shikast ko'rmay qaytmog'iga imkon bergil istiqbolimga"³.

Patrokl Axillesning sovut-qalqonini kiyib jangga o'tlanadi va dushmalar uni Axilles deb o'ylashadi. Hektor bilan bo'lgan shafqatsiz jangda u halok bo'ladi. Bu jang Patroklning taqdiriga bitib qo'yilgan edi. Do'stining o'limi haqidagi shum xabar Axillesning qulog'iga yetib borgach, u qattiq qayg'uga tushadi. Keyin esa

¹ D.Quronov. "Adabiyot nazariyasi asoslari". -Toshkent. Innovatsiya - Ziyo, 2020

² B.To'rayeva. U.Ko'chimov „Adabiyotshunoslik”.-Toshkent. Malik print co,2021

³ Homer. „Iliada”.- Toshkent. G'afur Gulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1988, 268-bet.



qadrdon do'stining xunini olish uchun astoydil harakat qilib, Patroklning o'limiga sababchi bo'lganlardan qasd oladi.

Do'stining o'limi sabab chekkan Axillesning iztiroblari, g'azabi, qayg'usi ushbu dostonning 17, 18, 19, 20, 21- qismlarida bayon etiladi, oxiri 22 - qo'shiqda Axilles va Hektor o'rtasidagi kurash, hamda Hektorning Axilles tomonidan o'ldirilishi sahnalari yoritilib beriladi. "Patroklni dafn etish. O'yinlar" deb nomlangan 23 - qo'shiqda Axillesning nodir javohiri - do'stini yo'qotgani uchun yunonlar ko'z yosh to'kib a'za tutadilar.

Barcha xalq olimlari, ilmi insonlari do'stlikka ilohiy fazilat sifatida qarshgan va unga turli ta'riflar berishgan. Misol tariqasida qadimgi yunon olimi, Aflotunning shogirdi hisoblangan Arastuning quyidagi fikrlarini keltirishimiz mumkin: "Do'stlik bebehogina emas, go'zallik hamdir: biz do'stlarni ardoqlagan kishini sharaflaymiz, ko'p do'stga ega bo'lish allaqanday ajib narsadek tuyuladi, ba'zilar esa hatto yaxshi odam bilan do'stni mutlaqo bir-biridan ajratmaydilar". Mashxur nemis yozuvchisi Gyote do'stlik haqida shunday jumalarni yozib qoldirgan: "Chinakam faol do'stlik o'zaro bir-birini suyashdir. Do'stim mening niyatlarimni quvvatlaydi, men esa uni quvvatlayman, shu tarzda garchand fikrlarimiz turlicha bo'lsa-da, biz birgalashib olg'a boramiz."⁴

Xulosa qilib aytganda adabiyotlar do'stligi xalqlar do'stligidir. Biror bir xalq adabiyotidan boshqa bir tilga tarjima qilishning o'zi adabiy do'stlikning eng yorqin namunasidir. Adabiyotda do'stlik mavzusi hech ham eskirmaydigan, baynalminal, chin insoniy tuyg'ulardan birini ifodalaydigan mavzudir. Uni o'rganish, tadqiqi etish va yoritish bizning asosiy maqsadimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Homer. "Iliada".- Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1988
2. Tafakkur gulshani -Toshkent.: "G'afur G'ulom", 1989
3. Quronov D. "Adabiyot nazariyasi asoslari". -Toshkent. Innovatsiya - Ziyosiy, 2020
4. To'rayeva B. U.Ko'chimov "Adabiyotshunoslik".-Toshkent. Malik prino, 2021

⁴ Tafakkur gulshani-Toshkent.: "G'afur G'ulom", 1989